

**MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA PUL
MABLAG‘LARI HARA KATI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI
TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

*N.Sh. Xadjimuratov – TDIU,
“Moliyaviy tahlil va audit” kafedrasi professori
S.S.Iskandarov – TDIU,
“Audit” mutaxassisligi magistranti*

Annotation: This article describes how to prepare a cash flow statement using the direct method based on International Financial Reporting Standards. In our country, only the direct method is used in the preparation of cash flow statements, so the introduction of the direct method by us will help to increase investor confidence in financial statements.

Keywords: cash, cash equivalents, cash flow statement, direct method, operating activity, investment activity, financial activity, financial statement, receipts from customers, payments to suppliers for goods and services, payments to employees, profit tax payments.

Kirish. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarga moliyaviy hisobotlarni tuzishda asosiy urinish moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot egallaydi. Tadbirkorlik sub‘ekti o‘zining MHXS bo‘yicha moliyaviy holat to‘g‘risidagi boshlang‘ich hisobotida va uning MHXS bo‘yicha birinchi moliyaviy hisobotlari qamrab olgan hamma davrlarda bir xil hisob siyosatlarini qo‘llashi kerak. Tadbirkorlik sub‘ekti MHXSlarining oldinroq amalda bo‘lgan boshqa tahrirlarini qo‘llamasligi kerak. Tadbirkorlik sub‘ekti qo‘llanilishi hali shart bo‘lmagan yangi MHXSni ushbu MHXSni muddatidan oldin qo‘llash ruxsat etilganida qo‘llashi mumkin.

Boshqa belgilangan holatlardan tashqari hollarda, tadbirkorlik sub‘ekti o‘zining MHXS bo‘yicha moliyaviy holat to‘g‘risidagi boshlang‘ich hisobotida:

(a) MHXSlar bo‘yicha tan olinishi talab qilingan barcha aktivlar va majburiyatlarni tan olishi kerak;

(b) MHXSlar tan olinishiga yo‘l qo‘ymadigan aktivlar va majburiyatlarni tan olmasligi kerak;

(v) oldingi BHUTga ko‘ra aktiv, majburiyat yoki kapitalning bitta turi sifatida tan olingan, lekin MHXSlarga muvofiq aktiv, majburiyat yoki kapitalning boshqa turi sifatida tan olingan moddalarni qayta tasniflamasligi kerak; va

(g) barcha tan olingan aktivlar va majburiyatlarni baholashda MHXSlarni qo‘llashi kerak [1].

Tadbirkorlik sub‘ekti o‘zining MHXS bo‘yicha moliyaviy holat to‘g‘risidagi

boshlang'ich hisobotida qo'llaydigan hisob siyosatlarini u oldingi BHUT bo'yicha xuddi shu sanaga qo'llagan hisob siyosatlaridan farq qilishi mumkin. Buning natijasida yuzaga keladigan tuzatishlar MHXSlarga o'tish sanadan oldin ro'y beradigan operatsiya va hodisalar natijasida paydo bo'ladi. Shu bois, tadbirkorlik sub'ekti ushbu tuzatishlarni MHXSlarga o'tish sanasida to'g'ridan-to'g'ri taqsimlanmagan foydada (yoki, o'rinli bo'lsa, kapitalning boshqa toifasida) tan olishi kerak.

Shunga ko'ra, moliyaviy holat to'g'risidagi hamda foyda va zarar to'g'risidagi hisobotlarni tuzib bo'lgandan so'ng pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish imkoniyatini beradi.

Moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha tuzish lozimligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan belgilangan [2].

Shundan kelib chiqqan holda, Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish lozimligi belgilanadi.

Xalqaro amaliyotda investitsiyalar asosiy e'tiborni moliyaviy hisobotning shakllaridan biri bo'lgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobotga qaratadi. Sababi, sub'ektga qancha pul kirishi va chiqishi ko'p bo'lganligi ularning qiziqishiga zamin uyg'otadi.

Adabiyotlar tahlili. Rus olimi V.V.Kovalyovning ta'kidlashicha "Pul mablag'lari - pul (naqd yoki naqd pulsiz) muomalada bo'lgan korxonaning mablag'lari yig'indisi"dir [3].

Yu.Brighem fikriga ko'ra, "pul oqimi" tushunchasi ma'lum bir davr mobaynida korxonaga kelib tushadigan sof pul mablag'lari" hisoblanadi[4].

Iqtisodchi olim I.A.Blank pul oqimini faqat investitsiya faoliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi: "pul oqimi (**cash-flow**) investorga qaytariladigan pul shaklida investitsiyalarning ta'sirini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich sifatida o'rgangan. Investitsiya bo'yicha pul oqimining asosini moddiy va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi summasi va foyda tashkil etadi"[5].

Xorijlik iqtisodchi olimlardan B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduell fikricha, "Pul – joriy moliyaviy manbalarda tijorat faoliyati hisobining asosiy o'lchov birligi hisoblanadi" deb tavsiflanadi.

B.Nidlz ta'kidlashicha, "Pul mablag'lari deganda korxonada kassasidagi va bankdagi hisob-kitob raqamida bo'lgan pullar, shuningdek, pul ekvivalentlari tushuniladi" [6] deyilgan.

A.A.Karimov, F.R.Islomov va A.Z.Avloqulovlar «Pul mablag'lari barcha hisob-kitoblarda vositachi bo'lgani sababli, tabiiyki, respublika xalq xo'jaligida mablag'larning bir maromdagi doiraviy aylanishini, bozor iqtisodiyoti sohasida faoliyat yuritishni ta'minlash uchun barcha o'zaro to'lovlar va o'zaro hisob-kitoblar to'g'ri va

o‘z vaqtida bajarilishi lozim. O‘z navbatida pul mablag‘lari, to‘lov, hisob-kitob va kredit muomalalarini o‘z vaqtida hamda samarali amalga oshirishga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi» deb ta‘kidlaydilar [7].

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 9-son BHMS «Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot» deb nomlanadi[8]. Ushbu standartning 5-bandiga asosan, **Pul mablag‘lari** — kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag‘lar, deb ta‘rif berilgan. **Pul ekvivalentlari** — ma‘lum pul mablag‘iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o‘zgarishlar tufayli uncha ko‘p bo‘lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo‘yilmalar) deb izohlanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, 7-sonli BHXSning 6-bandida pul mablag‘lariga quyidagicha ta‘rif berilgan: "Pul mablag‘lari naqd pul va talab qilib olguncha depozitlarni o‘z ichiga oladi". Pul mablag‘larining ekvivalenti esa "qisqa muddatli, belgilangan summadagi pul mablag‘lariga oson aylantiriladigan va qiymatining o‘zgarishi jihatidan ahamiyatsiz darajadagi riskka ega bo‘lgan yuqori likvidli investitsiyalar" deb ta‘riflangan [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola tadqiqot jarayonida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida bevosita usuldan foydalangan holda tuzish tartibi ochib berish maqsadida ilmiy-tadqiqotning tanlanma adabiyotlar tahlili, guruhlashtirish, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, ma‘lumotlarni yig‘ish va iqtisodiy matematika kabi keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (asosiy qism). Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga xo‘jalik sub‘ektining sof aktivlaridagi o‘zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to‘lov qobiliyati)ni va o‘zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o‘zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta‘sir ko‘rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma‘lumot bilan ta‘minlaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik sub‘ektining pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil xo‘jalik sub‘ektlariga tegishli kelgusi pul oqimlarining joriy (keltirilgan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. [10]

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi xisobot pul tushumlari va to‘lovlarni uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat.

Operatsion faoliyat natijasida kelib chiqadigan pul oqimlarining summasi -

xo'jalik sub'ekti, moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojat qilmasdan, o'z operatsion faoliyatidan yuzaga kelgan qarzlarni to'lash, o'zining operatsion faoliyatini yurgizish qobiliyatini saqlash, dividendlarni to'lash va yangi investitsiyalar qilish uchun yetarli bo'lgan pul oqimlarini qay darajada hosil qilganligini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichdir. Operatsion faoliyatidan oldingi davrlarda kelib chiqqan pul oqimlarining alohida tarkibiy qismlari to'g'risidagi ma'lumot, boshqa ma'lumotlar bilan birgalikda, operatsion faoliyat bo'yicha hosil bo'ladigan kelgusi pul oqimlarini prognoz qilishda foydalidir.

Operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlarini aks ettirish [11] (BHMSda quyidagilar ochib berilmagan):

Tadbirkorlik sub'ektlari operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimlarini bevosita usulni qo'llash orqali hisobotda ko'rsatishi ma'qullanadi. Bevosita usulni qo'llash natijada kelgusi pul oqimlarini baholash uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan hamda bilvosita usulni qo'llashda aks ettirilmaydigan ma'lumotlar ta'minlanadi. Bevosita usul qo'llanilganida, yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlarining asosiy toifalari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi yo'llar bilan olish mumkin:

- tadbirkorlik sub'ektining buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan; yoki
- umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan sotishdan tushum, sotish tannarxi (moliyaviy institutlar uchun foizlar va shunga o'xshash daromadlar hamda foiz xarajatlari va shunga o'xshash xarajatlar) va boshqa moddalarni quyidagilarga tuzatish orqali:

- davr mobaynida tovar-moddiy zaxiralardagi va operatsion debitorlik va kreditorlik qarzlardagi o'zgarishlar;
- boshqa pul mablag'lari harakatlanmaydigan moddalar; va
- investitsion yoki moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlarini keltirib chiqaradigan boshqa moddalar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt operatsiya faoliyatidan vujudga kelgan pul mablag'lari harakatini quyidagilardan foydalanib, ochib beradi:

Yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlari asosiy turlari ochib beriladigan bevosita usul;

Bilvosita usul. Bu usulga muvofiq sof daromad yoki zararga joriy aktivlar va majburiyatlarning o'zgarishiga, ishonchsiz operatsiyalarga, shuningdek operatsiya investisiya yoki moliya faoliyati natijasida olingan daromadlar va ko'rilgan zararlarga qarab o'zgartirish kiritiladi. [12]

BHXS: IAS 7 ga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektining pul oqimlari to'g'risidagi axborot, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun, tadbirkorlik sub'ektining pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini hosil qilish qobiliyatiga hamda ushbu pul oqimlaridan foydalanish ehtiyojlariga baho berishda asos sifatida foydalidir. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot davr davomidagi pul oqimlarini operatsion, investitsion

va moliyaviy faoliyatlar bo'yicha tasniflangan holda ko'rsatishi kerak.

Izchil turkumlashtirish:

- Pulga daxli bulmagan operatsiyalar kiritilmaydi;
- To'g'ri yoki egri usulni qo'llash MHXS 7 to'g'ri usulni qo'llashni tavsiya etadi;
- Moliya tashkilotlariga hisobotlarni NETTO asosida tuzish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish, hisoblash tamoyiliga amal qilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni bevosita usulda tuzish uchun operatsion faoliyatning pul mablag'lari oqimini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Xaridorlardan tushum;
2. Tovarlar va xizmatlar uchun yetkazib beruvchilarga to'lovlar;
3. Xodimlarga to'lovlar;
4. Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni tuzishda, avvalombor, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdan foydalaniladi.

1 – jadval.

ABC kompaniyasining moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidan ilovalar

	Yil boshiga	Yil oxiriga
Aktivlar:		
Xaridorlardan olinadigan schyotlar	55 000	47 000
Zaxiralar	110 000	144 000
Tovarlar va xizmatlar uchun berilgan avanslar	5 000	1 000
Yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar	43 000	50 000
Mehnatga haq to'lash bo'yicha majburiyatlar	9 000	10 000
To'lanadigan joriy foyda solig'i	5 000	3 000

Manba: *ma'lumotlar mualliflar tomonidan tuzilgan

2 – jadval.

ABC kompaniyasining foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotidan ilovalar

“Foyda yoki zarar” bo'limi	
Tushum	698 000
Realizatsiya tannarxi	457 000
Davr xarajatlari	116 000

Manba: *ma'lumotlar mualliflar tomonidan tuzilgan

3 – jadval.

Yil uchun qo'shimcha ma'lumotlar

Asosiy vositalarning amortizatsiyasi	37 000
Asosiy vositalarni sotishdan zarar	3 000
Mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar	58 000

Joriy foyda solig'i	18 000
---------------------	--------

Manba: *ma'lumotlar mualliflar tomonidan tuzilgan

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun har bir ko'rsatkich formulasi [13] ni keltirib o'tamiz:

1. Xaridorlardan tushumlar.

Tushum \pm olinadigan schyotlarning kamayishi (ko'payishi) \mp xaridorlardan olingan avanslarning kamayishi (ko'payishi) = xaridorlardan tushumlar

$$\text{Xaridorlardan tushumlar} = 698000 + 8000 = 706000$$

Yuqoridagi formulada tushum foyda va zarar to'g'risidagi hisobotdan, olinadigan schyot va xaridorlardan olingan avans esa moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot orqali olinadi.

2. Tovarlar va xizmatlar uchun yetkazib beruvchilarga to'lovlar.

Mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar = sotilgan mahsulot tannarxi + davr xarajatlari - eskirish bo'yicha xarajatlar – asosiy vositalarni sotishdan zarar – mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar \mp zaxiralarning kamayishi (ko'payishi) \mp to'lanadigan schyotlarning kamayishi (ko'payishi)

$$\text{Mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar} = 457000 + 116000 - 37000 - 3000 - 58000 + 34000 - 4000 - 7000 = 498000$$

3. Xodimlarga to'lovlar.

Xodimlarga to'lovlar = mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar \pm mehnat haqi bo'yicha majburiyatning kamayishi (ko'payishi)

$$\text{Xodimlarga to'lovlar} = 58000 - 3000 = 55000$$

4. Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar.

Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar = joriy foyda solig'i bo'yicha xarajat \pm to'lanadigan joriy soliqning kamayishi (ko'payishi)

$$\text{Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar} = 18000 + 2000 = 20000$$

Yuqoridagi formulalar orqali pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari aniqlanadi. Pul oqimlarini sof asosda aks ettirish:

Quyidagi operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatlar bo'yicha kelib chiqadigan pul oqimlari hisobotda sof asosda ko'rsatilishi mumkin:

- a) mijozlar nomidan olingan pul tushumlari va amalga oshirilgan to'lovlar, agar pul oqimlari tadbirkorlik sub'ektining emas, balki mijozning faoliyatini aks ettirsa; va
- b) tez aylanadigan, katta miqdordagi va so'ndirish muddati qisqa bo'lgan moddalar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari.

(b) bandida aytib o'tilgan pul tushumlari va to'lovlariga quyidagilar bo'yicha qilingan bo'naklar va to'lovlar misol bo'la oladi:

- (a) kredit kartochkalari egalariga tegishli asosiy summalar;
- (b) investitsiyalarni sotib olish va sotish; va

(v) boshqa qisqa muddatli qarzarlar, masalan, so'ndirish muddati uch oy va undan ham kam bo'lgan qarzarlar [14].

Investitsion faoliyat natijasidagi pul oqimlarini alohida oshkor etish muhimdir, chunki bunday pul oqimlari kelajakdagi daromad va pul oqimlarini olish uchun mo'ljallangan resurslar uchun qancha harajatlar sarflanganini aks ettiradi. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aktiv tan olinishiga olib keladigan harajatlarga investitsion faoliyat sifatida tasniflanishi mumkin. Investitsion faoliyatning pul mablag'lari oqimini aniqlash uchun:

- Asosiy vosita va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va sotish;
- Moliyaviy investitsiyalarni sotib olish va sotishga e'tibor qaratiladi.

Moliyaviy faoliyatdan kelib chiqadigan pul oqimlarini alohida ko'rsatish muhimdir, chunki bu xo'jalik sub'ektini moliyalashtiradigan tomonlar kelgusi pul oqimlariga bo'lgan talablarni oldindan bilishi uchun foydalidir. Moliyaviy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

- Aksiyalar yoki boshqa ulushli vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari;
- Korxonaning aksiyalarini sotib olish yoki muomaladan chiqarish uchun mulk egalari to'lovlar;
- Qarz majburiyatlarini to'lash;
- Foizlar bo'yicha to'lovlar;
- Dividendlar bo'yicha to'lovlar.

Xo'jalik sub'ekti investitsion va moliyaviy faoliyatlardan kelib chiqadigan yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlarning asosiy toifalarini hisobotda alohida ko'rsatishi kerak. Quyidagi operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatlar bo'yicha kelib chiqadigan pul oqimlari hisobotda sof asosda ko'rsatilishi mumkin:

(a) mijozlar nomidan olingan pul tushumlari va amalga oshirilgan to'lovlar, agar pul oqimlari xo'jalik sub'ektning emas, balki mijozning faoliyatini aks ettirsa; va

(b) tez aylanadigan, katta miqdordagi va so'ndirish muddati qisqa bo'lgan moddalar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari.

Moliyaviy institutning quyidagi faoliyatlaridan kelib chiqadigan pul oqimlari hisobotda sof asosda ko'rsatilishi mumkin [15]:

(a) so'ndirish sanasi qat'iy belgilangan omonatlarni qabul qilish va qaytarib berish bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari;

(b) boshqa moliyaviy institutlarda omonatlarni joylashtirish va qaytarib olish; va

(v) mijozlarga ajratilgan bo'naqlar va kreditlar hamda bo'naklar va kreditlarning qaytarilishi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlarining yig'indisi pul mablag'lari va ekvivalentlarining sof ko'payishi yoki kamayishi hosil qiladi. Ulushli investitsiyalar pul ekvivalentlariga kirmaydi, bundan

ular, aslini olganda, pul mablag'larining ekvivalentlari bo'lgan holatlari istisno, masalan so'ndirilishiga qisqa muddat qolganda sotib olingan va so'ndirilish muddati aniq belgilangan imtiyozli aksiyalar misolida kabi. (9-BHMSda keltirilmagan) [16]

Davr boshiga va davr oxiriga pul mablag'lari va ekvivalentlarining farqi pul oqimlari valyuta kurslari o'zgarishining ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Xorijiy valyutada aks ettirilgan pul oqimlari BHXS 21 "Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari"ga muvofiq tarzda taqdim etiladi. Bunda haqiqatdagi kursga taxminan teng bo'lgan ayirboshlash kursini qo'llashga ruxsat etiladi. Masalan, xorijiy valyutadagi operatsiyalarni aks ettirish yoki xorijiy shu'ba tadbirkorlik sub'ektining pul oqimlarini bir valyutadan boshqa valyutaga o'tkazish uchun ma'lum davr uchun o'rtacha tortilgan ayirboshlash kursi qo'llanilishi mumkin. Biroq, BHXS 21-ga muvofiq xorijiy shu'ba tadbirkorlik sub'ektining pul oqimlarini funksional valyutaga o'tkazishda hisobot davrining ohiridagi ayirboshlash kursini qo'llashga ruxsat etilmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning bevosita usuli bo'yicha tuzilgan shaklini keltirib o'tamiz:

4 – jadval.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – bevosita usul

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	
20__ yil 1_____ dan 1_____ gacha bo'lgan davr uchun	
Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining harakati	
Sotuvdan tushum	+ 706 000
Mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar	- (498 000)
Xodimlarga to'lovlar	- (55 000)
Foyda solig'i bo'yicha to'lovlar	- (20 000)
Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining holati	
+ 133 000	
Investitsiya faoliyatidan pul mablag'larining harakati	
Asosiy vositalarning olinishi	- (220 000)
Asosiy vositalarning sotilishi	+ 5 000
Qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi	- (72 000)
Qimmatli qog'ozlarning sotilishi	+ 103 000
Investitsiya faoliyatidan pul mablag'larining holati	
- (184 000)	
Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining harakati	
Oddiy aksiyalar chop etishdan tushum	+ 150 000
Bank kreditlarining tushumi	+ 100 000
Bank kreditlarining so'ndirilishi	- (50 000)
Foizlar bo'yicha to'lovlar	- (23 000)
Divedend bo'yicha to'lovlar	- (94 000)
Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'larining holati	
+ 83 000	
Pul mablag'larining holatidagi sof o'zgarishlar	
+ 32 000	

Yil boshiga pul mablag'lari	15 000
Yil oxiriga pul mablag'lari	47 000

Manba: *ma'lumotlar muallif tomonidan tuzilgan

Xulosa va takliflar. MHXS 166 dan ortiq mamlakatda qo'llaniladi. O'zbekistonda quyidagi tashkilotlar MHXS asosida hisob yuritishlari va hisobot topshirishlari zarur:

- 2000 dan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari va yirik soliq to'lovchilar;

- bosqichma-bosqich – davlat ulushiga ega bo'lgan korxonalar va davlat korxonalari.

Ushbu tashkilotlar buxgalteriya xizmati shtatida MHXS bo'yicha sertifikatlangan kamida uchta mutaxassisga ega bo'lishi kerak. [17]

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda hisoblash printsipli orqali amalga oshirish jarayoni yo'lga qo'yilgan, lekin pul oqimlari to'g'risidagi hisobot uchun esa hisoblash printsipli shart emas. Shunga muvofiq pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzishda xalqaro tajribalardan keng foydalangan holda bevosita usul orqali tuzish maqsadga muvofiq. Buning natijasida investorlarning moliyaviy hisobotlarga yanada ishonch va qiziqishining oshishishga erishiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlashda, ularning tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Operatsion faoliyat:

- Mahsulot, tovar va xizmatni sotish;
- Tovar va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'lovlar;
- Royaltlardan (patent, avtorlik huquqidan foydalanganlik uchun to'lovlar va boshq.), turli tavsifdagi taqdirlashlar, foiz daromadidan, komission yig'implardan va boshqa daromadlar;

- Korxonalar xodimlariga pullik to'lovlar, operatsion xarajatlar;

- Tovar-moddiy zahiralarning kamayishi;

- Tovar-moddiy zahiralarning ko'payishi;

- Savdo va vositachilik maksadlarida tuziladigan bitimlar bo'yicha pullarning kelib tushishi;

- To'langan foizlar;

- Joriy majburiyatlarining ko'payishi, jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromad solig'i;

- Joriy majburiyatlarining kamayishi, jumladan investitsiya va moliyaviy faoliyatga kirmaydigan daromadga soliq;

- Pulsiz xarajatlar:

a) asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, tabiiy resurslarining kamayishi

b) qarzlarga oid qimmatli kog'ozlar bo'yicha chegirmalarining amortizatsiyasi;

- Pulsiz muomalalari:

a) qarzlarga oid qimmatli qog'ozlar bo'yicha ustamaning amortizatsiyasi

2. Investitsiya faoliyati:

- Yer, binolar, uskunalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushumlar;

- Yerni, binolarni, uskunalarni, nomoddiy (masalan, patentlarni) va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish to'lovlari, kapitallashtirish bilan bog'liq tajriba-konstruktorlik ishlariga to'lovlar, hamda pudratchilarni jalb qilmasdan korxonada tomonidan yaratiladigan yer, bino, uskunalarga to'lovlar;

- Boshqa tashkilotlarning aksiyalarini yoki boshqa qarz majburiyatlarini chiqib ketishidan/sotilishidan kirimlar (pul mablag'larining ekvivalentlari deb hisoblangan yoki sotuv uchun saqlanadigan majburiyatlar uchun bo'ladigan to'lovlardan tashqari);

- Boshqa korxonalarining aksiyalariga yoki qarz majburiyatlariga qo'yilmalar. Kapitalda ishtirok etish ulushiga badallar (pul mablag'larining ekvivalentlari hisoblangan yoki sotish uchun saqlanayotgan to'lov xujjatlari bo'yicha to'lovlardan tashqari);

- Boshqa korxonalariga berilgan bo'naklarning qaytarilishi va qarzlarning to'lanishidan kirimlar (operatsion faoliyat bo'lgan foiz daromadlaridan tashqari);

- Boshqa korxonalariga berilgan bo'nak to'lovlari va qarzlarni.

3. Moliyaviy faoliyat:

- Aksiyalarni chiqarishdan kelgan pul mablag'lari;

- Xususiy sotib olingan aksiyalar uchun to'lovlar;

- Qarz mablag'laridan kelgan tushum (chiqarilgan vekselar, obligatsiyalar, garov xatlari va boshqa qisqa va uzoq muddatli kredit va qarzlarni);

- Kredit va qarzlarning to'lanishi (operatsion faoliyatning qarzlarni bo'yicha foizlardan tashqari);

- Aksiyadorlarga dividendlarni to'lanishi va kapitalning boshqa turdagi taqsimlanishi. Aksiyalarning chiqarishdan kelgan pul moliyaviy ijara bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar bo'yicha to'lovlar. [18]

Iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari umumlashtirilgan holda "pul mablag'lari" tushunchalariga yangicha ta'rif berildi: "Pul mablag'lari - majburiyatlarni zudlik bilan tiklash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turdagi mablag'lardir. Pul mablag'lariga moliyaviy muassasalardagi joriy schetlaridagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valyutalar, kassadagi naqd pullar va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan pul hujjatlaridir».

Bugungi kunda pul oqimlari hisobotini tuzishda va uning amaliyotida ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Bu esa hisobot shaklini mukammal darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli «Pul oqimi to'g'risida»gi hisobot shakliga ayrim o'zgartirishlar kiritilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni, birinchidan, hozirgi amalda qo'llanilayotgan hisobot shaklida korxonaning pul mablag'larini kirimi va chiqimi bir hisobot davri ko'rinishida aks etgan. Vaholanki, korxonalarning turli faoliyatlarini bir necha yillik davrlar bo'yicha o'rganish, taxlil qilish hamda baho berish maqsadga muvofiqdir. «Pul oqimlari to'g'risida»gi hisoboti shaklida ham «Buxgalteriya balansi» (1-shakl) hamda «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl) shakllari singari ikki hisobot davrini aks ettirish yaxshi samara bergan bo'lardi. Ikkinchidan, hozirgi kunda amalda bo'lgan ushbu hisobot shaklida pul mablag'larini harakati har bir faoliyat turlari bo'yicha alohida bo'linmalarda tasniflangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni bevosita usuldan foydalangan holda tuzish va uni taqdim etish natijasida kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish imkoniyati yanada oshadi hamda amaliyotda ushbu shaklni tuzishda yuzaga kelayotgan muammollarni bartaraf etishga va investorlar uchun pul oqimlari holatini ushbu shakldan aniqlashda qulayliklarga olib kelishga xizmat qiladi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori.
2. D.E.Norbekov, A.N.To'raev, Sh.Sh.Raxmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod moliya" – 2019. – 332 b.
3. Ковалев В. В. (ред.) - Финансы (3-е изд., перераб. и доп.) Издательство: "Проспект" ISBN: 978-5-392-18570-2 2016. 928 с.
4. Бригхем Ю, Гапенски Л Финансовый менеджмент Полный курс В 2-х т. / Пер. с англ. под ред. В.В. Ковалева. СПб Экономическая школа, 1997 +497с.
5. Бланк И.А. Управление финансовой безопасностью предприятия / И. А. Бланк. — Киев : Ника-Центр, 2009.
6. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. Пер. С англ Под. Ред. Проф. Я. В. Соколова - 2Е изд., стретип - М.: «Финансы и статистика», 1997 г.
7. Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлокулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. Т.: «Шарк» НМАК, 2004. - 592 б.
8. Пул оқими тўғрисидаги ҳисобот Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти 9-сон БҲМС. Ўзбекистон Республикаси Молия

вазирлигининг Стандарти 04.11.1998 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 519, кучга кириш санаси 04.11.1998.

9. 7-сон БҲХС. Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот.
https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/msfo/Uzb_GVT_BB2022_A_IAS07.pdf

10. <https://lex.uz/docs/-4746047>

11. Buxgalteriya Hisobining Xalqaro Standarti 7

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

12. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-v4.html?page=22>

13. https://uz.wikisko.ru/wiki/Cash_flow_statement

14. <https://tfi.uz/docs/oub/edition/%D0%98.%D0%9E%D1%87%D0%B8%D0%BB%D0%BE%D0%B2-%D0%8E%D0%A3%D0%9C-%D0%9C%D2%B2%D0%A5%D0%A1-%202019-2020-14.02.2020.pdf>

15. IFRS Academy <https://ifrs.academy/uz#>

16. <https://tfi.uz/storage/doc-pages/78/original/cc5caf8c621b3f9637accf174e20486dc3dab1c6.pdf>